



INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI IDIOMALARNING LINGVOMADANIY QIYOSIY TAHLILI

Latipov Aziz Akbaraliyevich
Samarqand davlat chet tillar instituti
PhD, v.b., dotsenti

Boltaboyeva O‘g‘iloy
Samarqand davlat chet tillar instituti
Ingliz filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola ingliz va o‘zbek tillarida uchraydigan idiomalarning qiyosiy tahliliga bag‘ishlangan. Idiomalar tarkibi barqaror bo‘lganligi bois ularni tarjima qilish orqali nutqqa qo‘shish mumkin bo‘lmagani sababli tadqiqotda ingliz tilida keng qo‘llaniladigan idiomalar va ularning ma‘nosini beruvchi o‘zbek tilidagi ekvivalentlari misollar asosida ko‘rib chiqildi. Ularni tilda qo‘llash ekspressivlik, obrazlilik va ta’sirchanlikni ifodalaydi va shu o‘rinda to‘g‘ri hamda me‘yorida qo‘llash ham muhim o‘rin tutishini ushbu tahlilda keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: idioma, lingvistik madaniyat, inglizcha idioma, frazeologiya.

Abstract. This article is devoted to a comparative analysis of idioms found in English and Uzbek. Since the composition of idioms is stable, it is impossible to introduce them into speech through translation, the study examined idioms widely used in English and their equivalents in Uzbek, giving their meaning. Their correct use represents expressiveness, imagery and impact, and in this case, correct and moderate use also plays an important role.

Key words: idiom, linguistic culture, English idiom, phraseology.

Аннотация. Статья посвящена сопоставительному анализу идиом английского и узбекского языков. Поскольку состав идиом устойчив, ввести их в речь посредством перевода невозможно, в исследовании рассматриваются широко используемые в английском языке идиомы и их эквиваленты в узбекском языке, раскрывая их значение на примерах. Правильное использование идиом отражает выразительность, образность и воздействие, и здесь важную роль играет также правильное и умеренное использование.

Ключевые слова: идиома, лингвокультура, английская идиома, фразеология.

KIRISH.

Til juda keng tushuncha hisoblanib uning har bir birligi, ertagi, rivoyati, iboralari ma‘lum bir xalqning kelib chiqish tarixi, madaniyati, e‘tiqodi, qadimiy urf-odatlariga borib taqaladi. Idiomalar ko‘pincha ajdodlrimiz tomonidan bizga me‘ros bo‘lib qoladi. Bu nafaqat o‘zbek tilida, balki ingliz tilida ham shunday va shuning uchun bir tilning iboralari boshqasiga tarjima qilinganda chalkashlik sodir bo‘ladi. Qolaversa, so‘z boyligi jihatidan ham tillar farqli bo‘lib frazeologik birliklarni to‘g‘ri tushunish va qo‘llay olish uchun o‘sha tildan xabardor bo‘lish yetarli emas, sababi iboralar turg‘un birlikma hisoblanib uni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilish uning mazmunini yoritma olmasligi va bu iboraning asosiy ma‘nosini yuqotishi mumkin.

Frazeologik birliklar tilning lug‘at boyligiga joziba qo‘shibgina qolmasdan, balki tildagi qadimiy tushunchani yangi so‘zlar orqali ifodalashga va avloddan avlodga qoldirish uchun muhim vosita hisoblanadi. Shu sababli idiomalar tarjimasi birmuncha murakkab soha bo‘lib, unda xato qilish tilga nisbatan haqoratdir. Bu uchun unga mos ekvivalentlardan foydalanish yoki izohlash yo‘li bilan qo‘llash tavsiya etiladi.¹

¹ Латипов, А. А. (2016). Фразеологические единицы, характеризующие лиц мужского пола. Ученый XXI века, 35.



Shu bilan birgalikda yangi idiomalar o'rganish turli millatlarning kommunikativlik xususiyatini, madaniyati va tarixini o'rganishni ta'minlaydi. Idioma (grekcha: “xususiyat”, “o'ziga xoslik”) frazeologizmlar turi; muayyan bir tilga xos bo'lib, boshqa tillarga aynan tarjima qilib bo'lmaydigan nutq birligi yoki iboradir. [uz.wikipedia.org] U odatda ko'chma ma'noda ishlatiladi va xalq og'zaki ijodining yaqqol namunasi sanaladi, hamda biz iboralar orqali insonning ichki his-tuyg'ularini birgina so'z yoki birikmadan tushunib olishimiz mumkin, ya'ni aynan figurativ ma'no anglatadigan idiomalar ham mavjud: “*Spill the beans*” tarjima qilinganda “*Loviyalarni to'kmoq*” asl ma'nosi esa “*Sirni ochib qo'yish*” bu ibora o'zbek tilida “*Gullab qo'ydi*” ma'nosini anglatadi.

Idiomalarni tahlil qilish jarayonida shuni ko'rish mumkinki, ular milliy madaniyatning muhim qismidir. Inglizcha idiomalar asosan g'arb madaniyati, an'analari, urf-odatlar va tarixiy voqealari bilan bog'liq bo'lsa, o'zbekcha idiomalar Sharq madaniyati, xalq og'zaki ijodi va qadriyatlari bilan bog'liq². Shuning uchun idiomani so'zma-so'z tarjima qilish to'liq mazmunni bermaydi, ya'ni kontekstual fikr anglashiladi, masalan, inglizlardagi “*Butterflies in my stomach*” iborasi “*qornimda kapalaklar bor*” deb tarjima qilinsada, uning asl ma'nosi “*jahlim chiqqan*” degan ma'noda va biz bunga ekvivalent sifatida o'zbek tilidagi “*tepa sochi tikka bo'lgan*” iborasini ishlatamiz. Shuningdek ularning kelib chiqish tarkibi ham turlicha: inglizlarda asosan hayvonlar, uy-ro'zg'or buyumlari, ob-havo, tana a'zolari iboraga asos qilib olinsa, o'zbek tilida ish qurollari, yer va osmon kabi tushunchalar tayanch sifatida foydalanilishini ko'rishimiz mumkin.

Misollar: “*A dog in the manger*” - tarjimasi “*oxurdagi it*”, o'zbek tilida “*hamma joyga burnini tiqmoq*” iborasi ekvivalent bo'lib qo'llana oladi. Bu ibora odatda negativ ma'noda foyalaniladi va so'zlovchiga tinglovchining yoqmayotganini anglatadi.

“*Black sheep*” - so'zma-so'z tarjimada “*qora qo'y*” ma'nosini beradi va bizda bu “*qo'y og'zidan cho'p olmagan*” iborasiga ekvivalent hisoblanadi va yalqov, bo'shang ma'nosini bildiradi.³

“*A cup of tea*” - so'zma-so'z tarjimada “*bir payola choy*” degan ma'noni bildirsa, uni biz odatiy choy ma'nosida tushunib olmasligimiz zarur va iboraning kontekstual ma'nosiga e'tibor qaratishimiz kerak. Bu idiomaga o'zbek tilida “*mayda-chuyda gap*” ya'ni bajarish hech qanaqa qiyinchilik tug'dirmaydi ma'nosida.

“*In hot water*” - tarjimasi “*issiq suvda*” deb tushunilsada, idiomaning asl ma'nosi o'zbek tilidagi “*yaxshi-yomon kunida yonida bo'lmoq*” iborasiga ekvivalent bo'lib keladi.

“*Break one's heart*” - tarjimasi “*kimnidir yuragini sindirmoq*”. Bu idiomaga o'zbek tilidagi “*hafsalasini pir qilmoq*” birikmasi ekvivalent bo'ladi va kimnidir qattiq xafa qilib qo'yish ma'nosida qo'llanadi.

“*Get on one's high horse*” - so'zma-so'z “*baland otga minmoq*” deb tarjima qilinsa-da, birovga nisbatan mensimasdan, o'zini katta olib munosabatda bo'lish ma'nosida qo'llanadi va o'zbek tilida “*burnidan qaramoq*” iborasi ekvivalent bo'la oladi.

Idiomalarni tarjima qilish jarayoni boshqa turdagi matnlarni tarjima qilishdan ancha murakkabdir, chunki idiomalar odatda lug'aviy ma'nosi bilan emas, balki kontekstual ma'nosi bilan tushuniladi.⁴

Tahlil jarayonlari shuni ko'rsatadiki, hamma idiomalarning ham ekvivalenti bo'lmasligi mumkin, chunki mentalitetda ancha farq bo'lishi tabiiy va fikrlash ham, jamiyatda kommunikatsiya qilish ham mentalitetga bevosita bog'liqdir. Masalan, “*Hit the sack*” iborasi o'zbek tilida “*O'rin-tushakka yotmoq*” deb tarjima qilinadi.⁵ Bu idioma so'zma-so'z tarjima qilinganda “*Xaltani urmoq*” degan ma'noni beradi, kontekstual ma'nosi “*uxlamoq*”. Shuning tarjima qilishda yaqin ma'nodosh ibora ishlatiladi. Ushbu usulning afzalligi shundaki, idiomaning ma'nosi yuqotilmaydi, lekin o'zbek tilidagi yaqin ma'nodosh ifoda tanlanadi.⁶

Xulosa qilib aytganda, millatlarning ko'zgusi til bo'lgani kabi undagi har bir birlik, shu jumladan,

² Латипов, А. А. (2016). Использование фразеологических единиц. Ученый XXI века, 27.

³ Soliyeva Z.I, Sharofova D.F. (2019) “Learn English through Idioms”. Samarqand. –P.36-40

⁴Baker.M. (2018) In Other Words: A Coursebook on Translation.3rd edn. London: Routledge. Available at:<https://doi.org/10.4324/9781315619187>. –P.239-244

⁵ Newmark.P. (1998) A Textbook of Translation. New York: Prentice-Hall International. Available at: <https://archive.org/details/textbookoftransl0000newm>. –P.147-150

⁶Newmark.P. (1998) A Textbook of Translation. New York: Prentice-Hall International. Available at: <https://archive.org/details/textbookoftransl0000newm>.



idiomalar ham muhim ahamiyatga ega. Yuqorida aytib o‘tilganidek, iboralar bevosita ota-bobolarmizning tajribalari va xatti-harakatlarining samarasiga borib taqaladi. Ularning an‘analari, urf-odatlar, madaniyatidan ma‘lumot beradi va shu sababdan ham biz boshqa elatlarning idiomalariga tushunishga qiynalishimiz mumkin. Ammo ilmiy izlanishlar va tahlillarga asoslanib ularning ichki ma‘nolarini o‘rganib olishimiz va ulardan o‘z nutqimizda foydalanishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Baker.M. (2018) In Other Words: A Coursebook on Translation.3rd ed. London: Routledge. Available at:<https://doi.org/10.4324/9781315619187>. Routledge, – 352p.
2. Newmark.P. (1998) A Textbook of Translation. New York: Prentice-Hall International. Available at: https://archive.org/details/textbookoftransl0000_newm. Prentice-Hall International, 1988, –292 p.
3. Ozoda Eshmurodova (2024) Subtleties of language: Translating English and Uzbek Idioms. Available at:<https://doi.org/10.37547/supsci-ojp-04-06-03%20>
4. Saydaliyeva.Z. (2017) O‘zbek tili frazeologizmlari va ularning tarjimasi .Toshkent.
5. Soliyeva Z.I, Sharofova D.F. (2019) “Learn English through Idioms”. Samarqand. 2008, - 142 p.
6. Латилов, А. А. (2016). ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ, ХАРАКТЕРИЗУЮЩИЕ ЛИЦ МУЖСКОГО ПОЛА. Ученый XXI века, 35.
7. Латилов, А. А. (2016). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ. Ученый XXI века, 27.
- ?? Absmadova, M. I. (2024). Exploring the language of diplomacy: Understanding the significance and evolution of diplomatic terms. Miasto Przyszłości, 49, 1315-1318.
- ?? Isroilovna, A. M. (2022). Methodological frameworks in written translation. In Online-Conferences" Platform (pp. 37-40).
 - ¹ Absamadova, M. (2024). Structural Analysis of Diplomatic Terminology: Single-Component Vs. Multi-Component Terms. Spanish Journal of Innovation and Integrity.
 - ¹ Isroilovna, A. M. (2024). The impact of diplomatic language on international relations: A comprehensive analysis. International Journal of Formal Education, 3(5), 504-507.
 - ¹ Absamadova, M. I. (2021). Games in the Teaching of English. Экономика и социум, (4-1 (83)), 43-47.
 - ¹ Халимова, Ф. Р. (2021). КОГНИТИВ ПОЭТИКА. Academic research in educational sciences, 2(12), 133-142.
 - ¹ Rustamovna, H. F. (2020). KEY CONCEPTS OF SIMULTANEOUS TRANSLATION. В научный сборник вошли научные работы, посвященные широкому кругу современных проблем науки и образования, вопросов образовательных технологий 2020.-436 с., 232.